

**ONOMASTIK TADQIQOTLARDA NEKRONIMLARNI
O‘RGANISH METODLARI**

Xushboqova Xurshida Qo‘ldosh qizi

Termiz davlat universiteti o‘zbek tili ixtisosligi

1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: ushbu tezisdagi onomastik tizim tarkibiga kiruvchi nekronimlarni o‘rganishda qo‘llaniladigan asosiy ilmiy metodlar keng qamrovda tahlil qilinadi. Nekronimlarning lingvistik, etimologik, tarixiy, hududiy, semantik va funksional jihatlari yoritilib, zamonaviy onomastik tadqiqotlarda kartografik va GIS (Geografik axborot tizimi) texnologiyalarining ahamiyati ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari nekronimlarni mustaqil onomastik birlik sifatida kompleks va fanlararo yondashuv asosida o‘rganish zaruratini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: onomastika, nekronim, toponimiya, tadqiqot metodlari, hududiy onomastika, tarixiy xotira, madaniy meros.

Onomastika tilshunoslik fanining muhim bo‘limlaridan biri bo‘lib, nomlash jarayonlari, nomlarning kelib chiqishi, rivojlanishi va funksional xususiyatlarini o‘rganadi. Onomastik birliklar jamiyatning tarixiy, madaniy va ijtimoiy hayoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, til orqali xalqning dunyoqarashi va mentalitetini aks ettiradi.

Onomastik tizim tarkibida *toponimlar*, *gidronimlar*, *antroponimlar* bilan bir qatorda *nekronimlar* ham alohida ilmiy ahamiyatga ega. Nekronimlar – dafn marosimlari bog‘liq obyektlar: qabriston, mozar, maqbara, qadamjo, masjid,

madrasa nomlarini ifodalovchi onomastik birliklar bo‘lib, jamiyatning diniy qarashlari, tarixiy xotirasi va madaniy qadriyatlarini mujassamlashtiradi.

So‘nggi yillarda hududiy onomastika va madaniy merosni o‘rganish doirasida nekronimlarga bo‘lgan ilmiy qiziqish ortib, ularni tadqiq etishda metodologik yondashuvlarni tizimlashtirish masalasi dolzarb bo‘lib bormoqda. Shu bois nekronimlarni o‘rganish metodlarini alohida tadqiq etish zarurati yuzaga keladi. Ularni o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan bir qator metodlar mavjud bo‘lib, ulardan ayrimlarini keltirib o‘tamiz.

Nekronimlarni o‘rganishda lingvistik metod.

Lingvistik metod nekronimlarni o‘rganishning asosiy va boshlang‘ich bosqichini tashkil etadi. Ushbu metod orqali nekronimlarning fonetik, morfologik va leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi.

Nekronimlarning tarkibiy tuzilishi ko‘pincha ikki yoki undan ortiq komponentlardan iborat bo‘lib, ular shaxs nomlari, diniy terminlar yoki geografik belgilarga asoslanadi. Masalan, shaxs nomiga asoslangan nekronimlar tarixiy shaxs yoki diniy arbob sharafiga qo‘yilgan bo‘lib, bu holat nomlash jarayonida jamiyatning qadriyatlar tizimini aks ettiradi. Lingvistik metod esa nekronimlarning umumiy onomastik tizimdagi o‘rnini belgilash, ularni boshqa onomastik birliklardan farqlash va tasniflash imkonini beradi.

Etimologik metod va uning tadqiqotdagi o‘rni.

Etimologik metod nekronimlarning kelib chiqishini, dastlabki ma’nosini va tarixiy rivojlanish jarayonini aniqlashga qaratilgan. Ushbu metod qadimgi yozma manbalar, tarixiy hujjatlar, arxiv materiallari hamda og‘zaki nutq namunalari asosida amalga oshiriladi.

Ko‘plab nekronimlar qadimgi turkiy, arab va fors tillari elementlari asosida shakllangan bo‘lib, ularning etimologik tahlili til tarixini va madaniy

aloqalarni yoritishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Etimologik metod nekronimlarning semantik o‘zgarishlarini aniqlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy metod va nekronimlarning tarixiy xotira bilan bog‘liqligi.

Tarixiy metod nekronimlarni muayyan tarixiy davrlar, voqealar va shaxslar bilan bog‘liq holda o‘rganishga xizmat qiladi. Nekronimlar ko‘pincha tarixiy shaxslar yoki diniy arboblarning nomi bilan atalgan bo‘lib, ular o‘sha hudud tarixining muhim belgilaridan biri hisoblanadi.

Mazkur metod nekronimlarni tarixiy manba sifatida talqin qilish imkonini beradi. Qadimiy qabriston va maqbaralar nomlari orqali jamiyatning diniy e‘tqodi, ijtimoiy tuzilishi va madaniy taraqqiyot bosqichlarini aniqlash mumkin.

Hududiy (areal) metod va regional xususiyatlar.

Hududiy metod nekronimlarni muayyan geografik makon doirasida o‘rganishga asoslanadi. Bu metod nekronimlarning hududiy tarqalishi, mahalliy nomlash an‘analari va dialektal xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Bir hududda uchraydigan nekronimlar boshqa hududlarda uchramasligi yoki nomlanish shakllari bilan farqlanishi mumkin. Hududiy metod nekronimlarning regional onomastik tizimdagi o‘rnini belgilash va ularning madaniy xususiyatlarini yoritishda muhim ahamiyatga ega.

Semantik va funksional tahlil.

Semantik metod nekronimlarning ma‘no qatlamlarini ochib berishga qaratilgan bo‘lib, ularning ramziy, diniy va madaniy ma‘nolarini aniqlashga yordam beradi. Nekronimlar ko‘pincha muqaddaslik, hurmat va xotira tushunchalari bilan bog‘liq bo‘ladi. Qozoq tilshunosi T.Januzaqov

toponimikada semantik tasnif toponimlarning ma'nosini bilish, shu bilan birga, odamning ish-harakati, turmushi, ijtimoiy hayoti bilan bog'liq masalalarni aniqlash imkoniyatini berishini ta'kidlaydi [3: 175]. Jumladan, uning tarkibiga kiruvchi nekronimlar ham xalqning ruhiy olamini, qadriyatlarini, diniy dunyoqarashini eng aniq aks ettiruvchi til birliklaridan biridir.

Funksional tahlil esa nekronimlarning jamiyat hayotidagi vazifalarini o'rganadi. Nekronimlar nafaqat geografik obyektни belgilaydi, balki jamiyatda diniy marosimlar, ziyorat va madaniy xotira markazi sifatida faoliyat yuritadi.

Fanlararo yondashuv va zamonaviy metodlar.

Zamonaviy onomastik tadqiqotlarda *fanlararo yondashuv* muhim o'rin egallaydi. Nekronimlarni o'rganishda tilshunoslik bilan bir qatorda tarix, geografiya, madaniyatshunoslik va arxeologiya fanlarining metodlari ham o'z navbatida qo'llaniladi.

Kartografik va GIS (Geografik axborot tizimi) texnologiyalaridan foydalanish nekronimlarning hududiy joylashuvi, tarqalish dinamikasi va statistik tahlilini amalga oshirish imkonini beradi. Ushbu metodlar nekronimlar asosida tarixiy-madaniy xaritalar yaratish va ilmiy xulosalarni vizual tarzda ifodalashga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, nekronimlarni o'rganish onomastik tadqiqotlarning muhim va mustaqil yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ularni tadqiq etishda lingvistik, etimologik, tarixiy, hududiy, semantik va zamonaviy metodlarning uyg'un qo'llanishi ilmiy natijalarning mukammalligini ta'minlaydi. Nekronimlar jamiyatning tarixiy xotirasi va madaniy merosini aks ettiruvchi muhim onomastik birlik sifatida kompleks tadqiqotni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qilichev B. Onomastika [Matn]: o‘quv qo‘llanma. – Buxoro: 2023. –180 b.
2. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. –Б.60.
3. Жанузақов Т. Орталық Қазақстан жер-су аттары. – Алматы: Ғылым, 1989. – Б.175-176.
4. М.В. Майоров. Некронимы и некротопонимы – предлагаемые элементы ономастической системы: статья.